

XALQ QO‘SHIQLARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING MA‘NAVIIY- AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH

Turon zar med universiteti o‘qituvchilari O.R.Ortikov, M.M.Murodova

Annotasiya: Mazkur maqolada Xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning mazmuni, maqsadi, tamoyillari, qonuniyatlari, amalga oshirish mexanizmi, xalq qo‘shiqlarining ta‘lim tarbiyadagi ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: xalq qo‘shiqlari, laparlar, milliy tarbiya, ta‘lim-tarbiya, ma‘naviyat, axloq, fazilat.

FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF STUDENTS THROUGH FOLK SONGS

Teachers of Turon Zar Med University O.R.Ortikov, M.M.Murodova

Abstract: This article discusses the meaning, purpose, principles, laws, mechanism of implementation, the importance of folk songs in education and training of students' moral and moral qualities by means of folk songs.

Key words: folk songs, lapars, national education, education, spirituality, morality, virtue.

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ СРЕДСТВО НАРОДНЫЕ ПЕСНИ

**Преподаватели Университета Турон Зар Мед Ортиков О.Р.,
Муродова М.М.**

Аннотация: В данной статье рассматриваются значение, цель, принципы, закономерности, механизм реализации, значение народных песен в воспитании и воспитании нравственно-нравственных качеств учащихся средствами народных песен.

Ключевые слова: народные песни, лапари, народное воспитание, воспитание, духовность, нравственность, добродетель.

Jahonning ko‘pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo‘lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g‘oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning sotsial tuzumiga xizmat qiladi.

Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi, qonuniyatlari va shu xalqning milliy musiqa madaniyati, tili, madaniy an‘analariga asoslanadi. Shu bilan birga

musiqa tarbiyasning strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning maʼrifiy madaniyatiga ham ijobiy taʼsir etadi.

Jamiyatimiz taraqqiyotida maʼnaviy va jismoniy sogʻlom avlodni tarbiyalash bugungi kunda bizning eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi. Zeroki, qator aytilgan bu fikrlar zamirida har doimgidek yoshlar turadi, sababi ularning bugungi kundagi olgan taʼlim-tarbiyasi nafaqat oʻzlari uchun balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim poydevordir. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga “Agar mendan sizni nima qiynaydi” deb soʻrasangiz, farzandlarimizning taʼlim va tarbiyasi deb javob beraman” - degan purmaʼno fikrlari fikrimiz yaqqol dalilidir.

Xalqimizning oʻtmish anʼanalari, milliy urf-odatlarini, milliy musiqa sanʼatining eng yaxshi namunalarini keng targʻib qilish, milliy musiqa anʼanalarini saqlash va rivojlantirish, yosh avlodda sanʼatga muhabbat tuygʻusini uygʻotish hamda xalqaro ijodiy aloqalarni kengaytirish, tinchlik, doʻstlik, oʻzaro hamjihatlik, madaniy- maʼnaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida yurtimizda keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bu yaratilayotgan ikmoniyatlarning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy xalq qoʻshiqchilari, musiqa va sanʼat turlariga qiziqishi va qobiliyatini oshirish, jamiyatdagi faolligini oshirish, ularni xalqimiz anʼanalariga va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, maʼnaviy va maʼrifiy saviyasini har tomonlama oshirish, oʻquvchilarning maʼnaviy va estetik rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, isteʼdodini har tomonlama kamol toptirish, madaniy saviyasini yuksaltirish, milliy va jahon musiqasi, tasviriy sanʼatning yuksak namunalaridan va oʻzbek xalqining mumtoz musiqa merosi durdonalaridan bahramand boʻlishi uchun zarur sharoitlar yaratish, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida talabalarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish, umumiy musiqa, xoreografiya, teatr sanʼati, tasviriy va amaliy sanʼat yoʻnalishlari boʻyicha bilimlarning boshlangʻich asoslarini oʻrgatish orqali ularni musiqa va sanʼat olamiga jalb etish koʻzda tutilgan. Shuningdek, milliy musiqa sanʼatimiz va xalq qoʻshiqchilari asoslarini qayta tiklash va rivojlantirish maqsadida jamiyat hayotining barcha yoʻnalishlarida boʻlganidek, uzluksiz taʼlim tizimining barcha bosqichlarida mavjud boʻlgan musiqa taʼlimi mazmuni milliy musiqiy meros toʻgʻrisidagi maʼlumotlar va asarlar bilan boyitildi. Bu holat taʼlim tizimining eng muhim shakllantiruvchi bosqichi boʻlgan umumiy oʻrta talim maktablari “musiqa madaniyati” fani uchun ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan davlat taʼlim standartlari va oʻquv dasturi, asosda yaratilgan darsliklarda yaqqol koʻrish mumkin.

Milliy musiqiy merosning uning turli janrlarida yaratilgan asarlar va ularda ilgari surilgan gʻoyalarning shaxs kamolotidagi oʻrni va ahamiyati, taʼlimning turli

bosqichlarida ulardan ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarda, jumladan, ma'naviy, estetik, axloqiy tarbiya vositasi sifatida foydalanish, o'quvchi yoshlar, talabalarda milliy xalq musiqa merosiga qiziqish uyg'otish masalalari ko'plab san'atshunos, folklorshunos va pedagog olimlar tomonidan o'rganilgan. Bunga S.X. Fayzulina, O.A. Vasilchenko, D.A. Djamolova, D.A. Jamolova, Q. Mamirov, H. Nurmatov, N. Tolliboev, I. Qudratov, E.M. Fayzullaev, N.B. Toshtemirov kabilarning ilmiy faoliyatida o'rganilgan.

Yosh avlodni ajdodlarimiz an'analari qadryatlari va madaniyati asosida tarbiyalash ularda ma'naviy axloqiy fazilatlarni shakllantirishda milliy musiqiy merosimiz xususan xalq qo'shiqlari alohida o'rin tutadi. O'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish xususan talabalarda ma'naviy axloqiy shakllantirish vositasi sifatida foydalanish o'ta muhim dolzarb masaladir. Xalq qo'shiqlari xalq va millatning ma'naviy musiqiy boyligi hisoblanadi. Har bir xalq asarning tarixi uning an'anaviy ijrosi xalq urf-odatlarini va boshqa qadryatlari bilan bog'lanishini va qaysi janrga mansubligini bilib ijro etish hamda undan axloqiy xulosalar chiqarib olish madaniyatini egallash o'quvchilarning xalq qo'shiqlari orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganligini ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi.

O'quvchi shaxsining ma'naviy-axloqiy shakllantirish bevosita musiqa, uning eng sharqona janri bo'lgan xalq qo'shiqlari orqali muvaffaqiyatli amalga oshiriladi, ma'naviy-axloqiy tushunchalar bilan tanishtirish lozim bo'ladi. Faylasuf-pedagog olimlar fikriga tayanib, ma'naviy-axloqiy tushunchalarni quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin.

1. Ma'naviy-axloqiy tushunchalarni bayon qilish;
2. Ma'naviy-axloqiy fikr yuritish;
3. Ma'naviy-axloqiy xulosalar chiqarish va bu hislatlarni odat tusiga kiritish.

Ma'naviy-axloqiy meyorlar sahiylik, oqko'ngillik, yaxshilik, hurmat, xayrixohlik, masuliyatlilik, mehnatsevarlik kabi atamalarning mazmunini bilib olish, o'z faoliyatida unga amal qilishni anglatadi.

O'zbek xalq qo'shiqlarining qadimiy tarixini, o'ziga xos xususiyatlari va turlarini o'rganishda ulug' tilshunos olim Maxmud Qashgariyning «Devonu lugotit turk» asari muhim o'rin tutadi. Mahmud Qoshg'ariy uzoq yillar el kezib turkiy tillar xususiyatini o'rganar ekan, ko'plab xalq, maqollari va qo'shiqlarini to'plagan¹.

Xalq qo'shiqlari- bu falsafiy va ijtimoiy tushunchalar bo'lib, insonni o'rab olgan atrof-muhitni amaliy jihatdan o'zlashtirish natijasida vujudga keladi. Ta'lim

¹ Ziyoda Masharipova "O'zbek xalq Og'zaki ijodi» (o'quv qo'llanma) T.: 2007 yil 95-bet

tarbiya jarayonida xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish ijtimoiy tarixiy hodisa sanaladi. Alisher Navoiy ham xalq qo‘shiqlari, turlari haqida ma‘lumot berar ekan, surud, ayolgu, lahn va turki so‘zlarining qo‘shiq ma‘nosini bildirganini asoslaydi².

Xalq qo‘shiqlari asosida milliy tarbiyaning mazmuni va tashkil etilishi quyidagi vazifalarda o‘z aksini topadi;

1. Xalq qo‘shiqlarining ma‘lum maqsadga qaratilganligi.
2. Xalq qo‘shiqlarining insonparvarlik qoidalari.
3. Xalq qo‘shiqlarining hayot bilan va mehnat bilan bog‘liqligi.
4. Xalq qo‘shiqlarida milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi.
5. O‘quvchilarni yoshi, sinfi, psixologik, fiziologik xususiyatlarini hisobga olish.

Xulosa qilib aytganda xalq qo‘shiqlarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, insonning his-tuyg‘ularini, kechinmalarini o‘ziga xos badiiy tilda ifodalaydi. O‘quvchilarni qiziqtiradigan, o‘ziga jalb etadigan, zavqlantiradigan sharoit yaratadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar xalqimizning milliy iftixori hisoblanadi. Asrlar davomida mehnat, kurash va ijod jarayonida ishilarini ezgulikka yetaklovchi ilhom manbai bo‘lib sanaladi. Musiqa tilsiz falsafa deb bejiz aytilmagan. Inson qo‘shiq bilan, musiqa bilan tirik. Kuy-qo‘shiqlarsiz hayotning mazmunini, atrofdagi go‘zallikni tasavvur etish qiyin. Qo‘shiq zavq ehtiyoji, eng go‘zal, eng oliyjanob orzu va hayotiy g‘oya hayqirig‘idir. Xalq qo‘shiqlari umuminsoniy qadriyatlarini o‘quvchilarni dunyoqarashi, musiqiy didini rivojlantiradi. Shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar o‘quvchilarda milliy kuy-qo‘shiqlarga ixlos uyg‘otadi, musiqiy qobiliyatlarini ritm tiyg‘usini o‘stirib, musiqiy o‘quvi va didini o‘stiradi, talabalarda milliy merosimizga, ommaviy kuy-qo‘shiqlarga, xalq aytimlariga va u orqali Vatanga muhabbat hissini tarbiyalaydi, alla, lapar, terma qo‘shiqlar vositasida o‘quvchilarda badiiy ijodkorlik qobiliyatlari o‘sib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni -T.: “O‘zbekiston”, 2020 yil 23 sentabr.

² Алишер Навоий, Хамса, 557-бет.

2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2017 y., - 592 b
3. Aliev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat . - T.: Akademiya, 2000.
4. Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. T., 1959.
5. O‘zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. 1-tom. T.: «Fan», 1998.Qodirov B. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. -T.: Mehnat, 2001. -195 b.
6. Quronov M. Maktab ma’naviyati va milliy tarbiya. - T.: Fan, 1995.-117 b.
7. Ortiqov O. R. MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA’LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
8. Ortiqov O. R. GLOBALLASHUV JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – С. 160-165.
9. Ortiqov O. R. O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTALOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 5. – С. 42-47.